INSON MARKAZIDAGI ADABIYOT VA ICHKI MONOLOGNING BADIIY AHMIYATI

Boboyorov Sardorbek
Termiz davlat pedagokika institute O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ong oqimi va uning badiiy asarlarda qanday talqin qilinishi yoritiladi. Xususan,Nazar Eshonqul va Dostoyevskiy asarlarining modernistik unsurlarga boyligi,badiiy ko'lami hamda zamonaviy adabiyotda yangicha yo'nalish ekanligi umumiy holatda yoritiladi..

Аннотация: В данной статье освещается поток сознания и его интерпретация в художественных произведениях. В частности, в общем плане рассматриваются произведения Назар Эшонкула и Достоевского, их насыщенность модернистскими элементами, художественный масштаб, а также их значение как нового направления в современной литературе.

Abstract: This article highlights the stream of consciousness and its interpretation in literary works. In particular, the works of Nazar Eshonqul and Dostoevsky are discussed in general terms, focusing on their richness in modernist elements, artistic scope, and their significance as a new direction in contemporary literature.

Adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri insonning ichki olamini badiiy talqin qilishdir. Inson markazida qurilgan asarlar har qanday makon va zamonda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. XX asr G'arb adabiyotida shakllangan modernizm oqimi aynan shu maqsadni ko'zlab, insonning botiniy kechinmalari, ruhiy holatlari, ong jarayonlari va ichki ziddiyatlarini real hayotdan uzilmagan holda tasvirlashni ustuvor vazifa sifatida ilgari surdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi adabiyot ham

insonni har tomonlama anglash, uning kechinmalarini chuqur tahlil qilishga intilishi lozim.

Shaxsni tahlil qilish jarayonida bir qator savollar paydo bo'ladi: insonning asl qiyofasi qayerda to'laroq namoyon bo'ladi - xayol jarayonlaridami yoki kundalik kechinmalarga xos voqelikdami?

Ko'z o'ngimizdagi tashqi hayot insonning ichki olamini to'liq aks ettira oladimi? Ushbu savollar zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Ichki Monolog va Ong Oqimi: Psixologik Tasvir Vositalari G'arb adabiyotida ichki monolog va ong oqimi qahramonning ongida davom etayotgan jarayonlarni bevosita o'quvchiga yetkazishning samarali vositasi hisoblanadi. Masalan, Fyodor Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanida keltirilgan ichki monolog Raskolnikovning ruhiy inqirozini, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashini ta'sirchan tarzda tasvirlaydi. Qahramon hali jinoyat sodir etmagan bo'lsa-da, uning ongida yurayotgan ichki tortishuv, qo'rquv, ikkilanish va ruhiy parokandalik ro'y-rost aks etadi. Shu orqali muallif inson tabiatining murakkab qatlamlarini ochib beradi, yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashni individual va umuminsoniy xarakterda tasvirlaydi. Dostoyevskiy ta'kidlaganidek, "insonning haqiqiy sudyasi uning vijdoni. Undan qochib bo'lmaydi." Raskolnikovning haqiqiy jinoyati insoniylikni o'ldirishda yotadi, shuningdek, hayotdagi eng katta xato vijdon va insoniylik belgisiga qarshi chiqishda yuzaga keladi. Shu tarzda, ichki monolog o'quvchiga qahramonning botinidan, uning ruhiy kechinmalaridan bevosita bahramand bo'lish imkonini beradi. O‘zbek Adabiyotida Ichki Monolog O'zbek adabiyotida ham ichki monolog va ong oqimi inson ruhiyatini tasvirlashda muhim o'rin egallay boshladi. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida qahramonning e'tiqod, ishonch va ma'naviy qadriyatlar borasidagi ichki iztiroblari shu usul yordamida ochiladi:

"Agar bir umr e'tiqod qo'yib yashasangizu bir kuni e'tiqod qo'ygan narsangiz

puch, yolg'on ekanini anglasangiz... Siz esa bo'shliqni to'ldirish uchun har qanday yovuzlikdan qaytmasdingiz. Shumi e'tiqod?!"

Bu monologda qahramonning ruhiy iztirobi, ishonch inqirozi, ma'naviy tayanchlar yemirilganda inson qanday boshliqka qulashini his etish mumkin. Adibning "Inson tafakkuri tinimsiz yangilanishga mahkum' degan fikri bejiz emas. Ichki monolog va ong oqimi usullarining o'zbek adabiyotiga kirib kelishi tafakkur shakllarining yangilanishi, inson ruhiyatini yanada chuqurroq tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq.

Xulosa Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ichki monolog va ong oqimi nafaqat modernizmning asosiy badiiy vositalaridan biri, balki adabiyotning inson ruhiyati bilan ishlaydigan eng ta'sirli usullaridan sanaladi. Bu usullar qahramonning ichki olamini to'g'ridan-to'g‘ri ochib, o'quvchini uning ruhiy kechinmalariga sherik qiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu yo'nalishning rivoji inson markazidagi adabiyotning yangilanishi, teranlashishi va badiiy qamrovining kengayishiga xizmat qilmoqda. Yuqorida asaridan parcha olingan Nazar Eshonqul bilan bir qatorda Erkin A'zam, Xurshid Do'smuhammad va Ulug'bek Hamdam kabi modern yo'nalishda ijod qilayotgan yozuvchilar ham bugun o'z asarlarida insonga, uning ichki dunyosiga bevosita kirib borishga harakat qilishyapti.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazar Eshonqul. *Mendan mengacha*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2014.
2. Nazar Eshonqul. *Kitob bandasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
3. Fyodor Dostoyevskiy. *Jinoyat va jazo*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2016.
4. Izzat Sulton. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2005.
5. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.